

**TARBIYAVIY TA’SIR ETUVCHI MANBALARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI****Xo'shboqov Muxiddin Ravshanovich**

Surxondaryo viloyati Sherobod

tumani 29-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi va izohiga to’xtalib o’tilgan. Tarbiyaviy fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: islom, taqvo, diniy e’tiqod, musulmon, ota-ona, tarbiya, diniy ta’limot.

Sharq Uyg‘onishi davrida ma’naviy-ma’rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo‘lib, insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid asarlarning asosiyda rivoj topdi. Bunday asarlar islom dini ta’sirida yozilgan bo‘lib, ularda pand-nasihat, odob-axloq, yaxshlikka yo‘naltiruvchi omillar yuqori o‘rinda turgan. Sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim bo‘lgan. “Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchiyu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. “Qutadg‘u bilig”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Mahbub ul-qulub” kabi Yusuf Xos Hojib, Nasiriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta’kidlaganimiz inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega”. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda



insonning ma’naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo’lishi ilmfanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g’oya ilgari surildi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o’rgatish “Qur’on” va “Hadis”larni o’rganish va ulardagi ko’rsatmalarni o’zlashtirib olish bilan birga olib borilgan. Shunga ko’ra, “Qur’on” va “Hadis”lardagi pand-nasihatlari ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta’sir etgan. Hadislarning ta’siriga sabab umuminsoniy fazilatlarga alohida urg’u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim xislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehr-u oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalar, axloq mezonlari va boshqalar o’z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta’limiy-axloqiy asarlarga ta’sir etgan. Ta’limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g’oyalar asosida yaratildi. Hadislar ta’siri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan boshlanib, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlar negizida ko’rinadi. Ham g’oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir. Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o’rganishga, o’zligimizni anglab yetishga imkoniyat yaratildi. Ayniqsa, muqaddas dinimiz - Islom dinining qayta tirilishi, uning insoniyat uchun ma’rifat keltiradigan din ekanligini anglab yetayotganligimiz xalqimiz madaniy-ma’naviy hayotida tub burilish hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Qur’oni Karim oyatlarida, Hadisi Sharifda bayon etilgan g’oyalar insoniyat tafakkuri va faoliyatidan ayri holda emas. Ayniqsa, Islom inonbalarida insonlardagi muomala madaniyati yaxshilik, burch, adolat, iymon singari odob va axloq tushunchalari bilan uyg’un holda olib qaratadi. Shuningdek, ota-ona bilan farzand o’rtasidagi munosabat, ularning o’zaro muomalada go’zallikka intilish masalalariga Islom dini juda katta e’tibor qaratadi. Bu borada Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan maria bu hadis tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga molik: “Bir odam Rasululloh salollohu alayhi vassallamning huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog’imga kim haqliroqdir?”-deb so’raganida Payg’ambarimiz (s.a.v.)



uch martasida ham «Onang!», so'ngra esa «Otang!»-deb javob beradilar. Ota-onani haqorat qilish, ularga yomon muomalada bo'lishni «odam qiladigan gunohi azimlardan biri» deb aytadilar. Ko'rinib turibdiki, Islomda chiroyli muomalaga, eng avvalo, ota-onalar haqlidir. Shuni ta'kidlash lozimki, Islomda tarbiya masalasiga e'tibor ta'lim masalalariga nisbatan keng qamrovliroq va ustuvorroqdir. Chunki tarbiya bolani uyda, ko'chada, maktabda o'zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o'ziga bo'ysindirishdek og'ir ishni yo'lga qo'yadi. Zero, inson ko'rib, eshitib, bilib, o'rganib tarbiyalanadi. Shu bilan birga, Ollohning haqqi - namoz, ro'za, zakot, haj kabi ibodatlarini ado etishi barobarida atrofdagilarni shirinso'zlikka, xushmuomalaga chaqirib boshqalarga ibrat bo'lishi nio'minlikning muhim xususiyatlaridan sanaladi. Ana shunday muomalalardan biri - shirinso'zlikdir. «Farzand ne'matining shukri uning go'zal tarbiyasidir» degan tamoyilga asoslangan Islom nazariyasi har bir tug'ilgan chaqaloq to'li chiqib, dilidagini gapira olguncha Islom tabiati bilan tug'ilishini, biroq ota-onalar farzandini g'ayridin yoki iymonsiz qilib qo'yishini uqtiradi. Bundan anglanadiki, bolalar ota-onalar tomonidan qanday yo'lga solinsa shu yo'lga qarab ketishligi ma'lum bo'ladi. Demak, ota-ona farzandni tarbiya qilar ekan, uning muomalasini to'g'ri yo'lga solishi ham ularning yuksak burchlaridan hisoblanadi. Bu borada Qur'onda ba'zi toifa odamlar boshqalarga nisbatan ezgulik qilinishiga haqli ekanligi uqtiriladi. Bu toifalarning avvalida esa ota-ona qo'yiladi. Islom dinida shirinso'zlik ulug'lanadi, yolg'onchilik esa unga to'siq bo'ladigan illat hisoblanadi, yolg'on so'zlovchilar munofiq deb ataladi. Yolg'on so'zlash Islom dinida muomala madaniyatiga zid holat sanaladi. Chunki odamlar har doim ham aldanavermaydilar, bir-ikki marta muomala-muloqotdan so'ng sezgir odam birodarining yolg'on yoki rost so'zlayotganligini bilib oladi. Aytish mumkinki, Islom dinida ibodatning mohiyati ham yaxshiso'zlik va yaxshilik e'tiqodlariga qaratilgan. Til yaxshi-yomon gaplarni so'zlaydi, agar qalb shahvat va g'aflat bilan to'lgan bo'lsa, buni baxtsizlik alomati, deb bilish lozim. Chun ki ibodatdan ko'zlangan maqsad-yomonlikdan xoli bo'lish. Bu esa o'zini til va so'z orqali namoyon etadi.



Biz yuqoridagi fikrlarni o'qir ekanmiz, ushbu tarbiyaviy ilmlarni amaliyotda qo'llaganimizda yosh avlod ongiga singdira olganimizda yoshlarimiz ma'nan yetuk, barkamol, komil, shaxs bo'lib voyaga yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
2. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” Toshkent. 2002.
3. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
4. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 709 www.ares.uz
5. Po‘latov, Sh.N., Tarbiyaviy o‘gitlar. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.